

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

“KIRITDI”

**O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
rektori**

Sherzodxon Qudratyo‘ja



“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi**

2026-yil “ ”



**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60320200 – AXBOROT XIZMATI VA JAMOATCHILIK BILAN
ALOQALAR BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHI UCHUN**

Toshkent – 2026

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'quv
uslubiy kengashining 2026-yil "23" maydagi "5/3"-son qarori bilan
tasdiqlangan**

Tuzuvchilar: **R. Rayimjanov** – O'zJOKU o'quv ishlari bo'yicha prorektori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N. Muratova – O'zJOKU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh. Qosimov – O'zJOKU To'g'on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası mudiri

N. Qosimova – O'zJOKU To'g'on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası professori.

M. Gulyamova – O'zJOKU To'g'on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası f.f.f.d. (PhD).

Taqrizchilar: **M. Mirsoatova** – O'zZMU Jurnalistika kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O. Toshbiyev – O'zJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası dotsenti

Kirish

60320200 – Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur sohada talab etiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Jamoatchilik bilan aloqalar (Pablik rileyshnz) sohasini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Axborot xizmatlari va PR sohasi mutaxassisi bo'lishga moyilligi;
- Mustaqil fikr yuritishi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og'zaki muloqotga moyilligi;
- Axborot xizmati sohasidan qay darajada xabardorligi;
- Auditoriya bilan muloqot o'rnatish mahorati .

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha **og'zaki suhbat** bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– abituriyentning bosma ommaviy axborot vositalari va internet saytlarida e'lon qilingan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a'zolari tomonidan o'rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abituriyent bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa tahlil etiladi hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o'tkazgani aniqlanadi;

– jamiyat va uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

– O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

– badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyondalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so‘nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– suhbat davomida jurnalistika sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlari aniqlanadi.

Og‘zaki suhbat davomida tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?
2. Siz nega aynan axborot xizmatlari va jamoatchilik bilan aloqalar sohasini tanladingiz? Bu tanlov kimning ta’sirida bo‘ldi?
3. Fuqarolik jamiyati nima?
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus nimalardan iborat?
5. Sizni jamoatchilik bilan aloqalar sohasida nima qiziqtiradi? Qachondan beri bu sohaga qiziqasiz?
6. OAVda materiallaringizni e‘lon qilganmisiz? Qaysi OAVda nechta axborot materialingiz e‘lon qilingan? Bu materiallar nima haqida? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.
7. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
8. Shu davrga qadar biror axborot xizmatiga tashrif buyurib, uning faoliyati bilan tanishganmisiz?
9. “Axborot urushi”, “axborot xuruji” haqidagi tushunchangiz?
10. Xalq bilan muloqot o‘rnatishda axborot xizmatlari va matbuot kotiblarining o‘rni haqida qanday fikrdasiz?
11. Jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rnini qanday baholaysiz?
12. O‘zbekistonda va xorijda faoliyat yuritadigan jurnalistlardan kimlarni taniysiz?
13. Sizga qaysi OAV ko‘proq yoqadi: gazeta, radio, televideniye yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
14. “Demokratiya” deganda nimani tushunasiz?
15. Televideniye nimasi bilan sizni qiziqtiradi? Televideniye qanday tushunasiz?
16. OAVda internetning o‘rni qanday?
17. Jamoatchilik bilan aloqalar nima? PRmen kim?
18. Fuqarolik pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz?
19. Qanday mahsulotlar va xizmatlar reklama qilinishiga cheklov o‘rnatilgan?

20. Agar siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo'lsa, nima qilasiz?

21. Sizning nazaringizda, jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?

22. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o'qishdan nimalarni kutayapsiz?

23. Brifing nima?

24. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?

25. Fuqarolarning siyosiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?

26. Mashhur davlat arbobidan intervyu olish imkoniyati tug'ilsa, qanday 5 ta asosiy savolni bergan bo'lar edingiz?

27. Sizningcha, jurnalistikada vaqt me'yori nima bilan o'lchanadi? (Jurnalistikada vaqtning ahamiyati qanday?)

28. Texnik jihatdan qurollangan blogerga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimani olgan bo'lar edingiz? Nima uchun?

29. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?

30. Matbuot anjumani (Press-konferensiya) deganda nimani tushunasiz?

31. Onlayn jurnalistikaning ahamiyati nimada?

32. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.

33. O'zbekistondagi shoir va yozuvchilardan kimlarni taniysiz? Ularning ijodida nimalar e'tiboringizni tortadi, yoqadi?

34. Negativ xabar nega tez tarqaladi?

35. Jurnalist etikasi deganda nimani tushunasiz?

36. PRning kompaniyalar rivojidadagi o'rni nimada deb o'ylaysiz?

37. Brend deganda nimani tushunasiz?

38. O'zingizni 5-10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz? (qo'shimcha savol)

39. Mish-mishlar qanday paydo bo'ladi?

40. Qaysi mahalliy OAVni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni o'ziga jalb qilgan? Nimani o'zgartirishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

41. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday?

42. Biror tashkilotni reklama qiladigan reklama-shior (slogan) o'ylab topa olasizmi?

43. Imij deganda nimani tushunasiz?

44. "Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qilishi lozim" degan tushunchani izohlab bering.


45. "Janr" deganda nimani tushunasiz?

46. Prezident Mirziyoyev Sh.M.ning 2019-yil 27-iyunda "Xalq so'zi" gazetasida e'lon qilingan Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bag'ishlangan nutqida asosan nimalarga urg'u berilgan?

47. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt saflaysiz va qanday maqsadlarda? (qo'shimcha savol)

48. PRdan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq? (qo'shimcha savol)

49. Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 15-sentabrdagi o'qituvchilarga ehtirom, yoshlarga imkoniyat mamlakat kelajagini ta'minlashi bo'yicha so'zlagan nutqida asosan nimalarga urg'u bergan?



50. Prezident Sh.M.Mirziyoev 2025 yil Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida qanday masalalarga to'xtalangan?

51. O'qituvchi maqomini yuksaltirish, yoshlarga keng imkoniyat yaratish, ta'lim sifatini oshirish va islohotlarni davom ettirish, ma'naviy tarbiya va vatanparvarlik, ilm-fan va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash hamda davlat va jamiyat hamkorligi masalalari Prezident Sh.M.Mirziyoyevning aynan qaysi nutqida aks etgan?

52. "Jurnalistning noni qattiq" iborasiga munosabatingiz qanday?

53. Sizningcha Zamonaviy media muhitda RR-xizmatlari qanday bo'lishi kerak?

Ikkinchi bosqich ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va ijodiy imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval ijodiy imtihon komissiyasi raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;

– ijodiy insho o'tkazilishi uchun **3 astronomik soat** vaqt belgilanadi;

– ijodiy insho betlari muhrlangan **12 varaqli daftarga** yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

– ijodiy inshoning hajmi **5 betdan 10 betgacha** deb belgilanadi;

– ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, ijodiy imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

– yozma ishlar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va ijodiy imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

– tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni raqamlab, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

– ijodiy inshoga quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi:

ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi;

– ijodiy imtihon natijalari bir kundan so'ng e'lon qilinadi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – **93 ball**.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning **33,3 foizi, ya'ni 31 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan **66,6 foizi, ya'ni 62 ball** belgilanadi.

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga **0 – 31 ballgacha** qo'yish mumkin.

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo'q, abituriyentning fikrlashi sayoz, bosma OAVda e'lon qilingan materiallari yo'q, lekin jurnalist bo'lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, bosma OAVda e'lon qilingan 1-3 kichik hajmli material bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistikaga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, bosma OAV faoliyatini izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e'lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaga ko'p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rmini chuqur tushunadi, bosma OAVni yaxshi biladi, ko'p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, 10-20 ta e'lon qilgan material bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistikaga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko'p borgan va redaksiya ishi bilan tanish, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, milliy bosma OAV faoliyati haqida atroflicha tasavvuri bor, matubot nashrlarida faoliyat yuritadigan jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e'lon qilgan materiallari 20 dan ko'p	26 – 31 ball

Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	10 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan, ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
2.	Mavzu sayoz ochilgan, abituriyentning fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqur emas, yozma ish mantiqan bo'sh, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha	1–8 ball
3.	Mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta	9–16 ball
4.	Mavzu o'rtacha ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz sayoz, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta	17–25 ball
5.	Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi torroq, lekin jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta	26–33 ball
6.	Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 2-3 ta	34–42 ball
7.	Mavzu yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta	43–52 ball
8.	Mavzu teran ochib berilgan, abituriyentning dunyoqarashi chuqur va atroflicha, jurnalistika roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar yo'q	53–62 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniiga taqdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat

imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarorining 1-ilova "Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O'qituvchilarga ehtirom va yoshlarga imkoniyat mamlakat kelajagini ta'minlaydi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Prezident matbuot xizmati. – 2025. – 15-sentabr.

2. Mirziyoev Sh.M. "2026-yil barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi": O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 2025 yil 26 dekabr.

3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.

6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

8. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 27-iyun.

9. Nishonova G., Shukurova G., Qosimova N. va boshq. Zamonaviy media muhitda RR-xizmatlar. J.VIII. – T., "O'zbekiston", NMIU, 2019.

10. Qosimova N. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo'llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot. – T., "BAKTRIYA PRESS", 2014.

11. Muminov F. "Паблик рилейшнз: история и теория" T.: Ijod dunyosi, 2004.

12. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.

13. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.

14. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.

15. Nazira Qurbon, Karim Bahriyev "Media huquqi". Darslik. – T.: Grand Inter Media, 2022.

16. Saidov H., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: G'afur G'ulom